

**Globalashuv sharoitida yoshlar identikligini rivojlantirish
tamoyillari**

Latif Tashayev

*Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat
arxitektura –qurilish universiteti tyutori*

Annotatsiya: *Maqolada globalashuv sharoitida yoshlarda identiklikni rivojlantirish jarayonlari, ulardagi axloqiy mansublikni saqlab qolishning nazariy jixatlari yoritib berilgan. Yoshlarda bugungi kundagi uchrayotgan ommaviy madaniyat niqobi ostidagi har xil axloqsizlik elementlarining oldini olish yo'llari hamda yoshlarni milliy g'urur ruhida tarbiyalash jarayonlari ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, yoshlar ongida axloqiy identiklikni rivojlantirishning mexanizmlari va ularni ona vatanga muxabbat ruhida tarbiyalash, sof milliy urf-odatlarimiz, an-analarimizga hurmat ruhida tarbiyalash yo'llari keng yoritib o'tilgan.*

Kalit so'zlari: *Identiklik, axloqiy mansublik, mansublik, globalashuv, globalashuv jarayonlari, yoshlar, qadriyat, yoshlar ongi, globalashuv jarayonlari.*

Shiddat bilan o'zgarayotgan bugungi olam insoniyat qarshisiga juda ko'p savollarni qo'yimoqda. Shulardan eng asosiysi insonlar nafaqat o'z axloqiy hususiyatlarini o'zgartirmoqda balki tabiiy yaralgan holatlarini ham o'zgartirishga harakat qilmoqda vaholanki, shu asnoda o'z erkiga erkinlik berib odomzotga xos bo'lgan tabiiy qonuniyatlarga qarshi chiqib uning meyorlarini butunlay boshqa qiyofaga keltirishga harakat qilinmoqda. Bu holat insonlarning axloqiy, ma'naviy dunyoqarashiga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Buning ortidan ayniqsa yoshlar juda katta axloqiy zarar ko'rayapdi. Shuning uchun yoshlarda bugungi kunda axloqiy ma'naviy identiklikni rivojlantirishni hayotning o'zi yaqqol ko'rsatib turibdi. Yoshlarda axloqiy mansublik jixatlarini rivojlantirishda oila institutining o'рни juda muximdir. Jamiyatda hech bir institut yoshlarni tarbiyalashda oila institutiga teng kelolmaydi. Shuning uchun oila yoshlar axloqiy

mansubligini rivojlantirish tamoyilida asosiy o'rinni egallaydi. Jamiyatdagi ijtimoiy ma'naviy sog'lom muxitni jamiyatda yashayotgan oilalar belgilab beradi.

Odam ijtimoiy mavjudot sifatida qaralganda, uning erkin fikriga, e'tiqodga, yaratuvchilik qudratiga, boshqalar va yashayotganimiz olam qarshisidagi mas'uliyat tuyg'usiga ega ekanligi nazarda tutiladi. «XX asrda globallashuv jarayonining tezlashishi va umumsayyoraviy sivilizatsiyaning shakllana boshlashi jahon mafkuralarining xarakterini o'zgartirib yubordi. Ularning o'rnini bosadigan qudratli mafkuraning yo'qligi, geosiyosiy maqsadlarning o'zgargani esa bu g'oyalarning salbiy ta'sirini yanada kuchaytirdi. Bunday sharoitda o'z maqsadini aniq belgilab olgan, ehtiyoj va manfaatlarini yaxshi anglab etgan, o'z e'tiqodiga ega bo'lgan, bir so'z bilan aytganda o'z milliy g'oyasini shakllantirgan millatgina kelajagini saqlab qoladi va istiqbolini belgalaydi»¹ Odamzot yashayotgan ekan bu yorug' olamda o'ziga ko'plab vijdoni oldida savollar beradi. Bu holat insonning o'zligini anglashga ko'maklashadi.

O'zligini bilgan balki anglay olgan yoshlargina shaxs darajasiga erishadi. Darhaqiqat o'zligini anglab yetish, birinchidan har qaysi odamning shaxsi, alohida «meni» bilan bog'liq "Kimki o'zligini tanisa, robbini taniydi". Bu hadisda ham chuqur ma'no borligini tushinishimiz mumkin. Uni bugungi kun yoshlar muammolari yuzasidan quyidagicha talqin etamiz: har qaysi yosh o'zi harakat qilmasa, orzular qanchalik katta bo'lishiga qaramasdan bironta bir natijasi bo'lmaydi. Shuning uchun ham har doim olimlar yoshlar bizning kelajagimiz va ertangi kunimiz deb bejizga aytishmagan. Bizning milliy mafkuramiz va milliy g'oyamiz dunyo xalqlarning uzoq o'tmish rivojlanish jarayonida paydo bo'lgan merosidan ham ozuqa olganligi bejiz emas.

Zero, insoniyat jamiyati yaratilibdiki, turli xalq olimlari odamni o'zlikni tushinishga chorlaydi. Bugungi globallashuv jarayonlarining Ijtimoiy turmush tarzimiz bilan aloqasi borasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Miriziyoev o'z fikrlarini bildirar ekan, "Yangi tahdidlar, jumladan,

¹ Safoeva. S. Globallashuv jarayonining ijtimoiy hayot sohalariga ta'siri. // Globallashuv jarayonida jamiyatni demokratlashtirishning siyosiy, falsafiy-huquqiy masalalari. –Toshkent: Falsafa va huquq nashriyoti, 2006, 27-bet.

«ommaviy madaniyat» xavfi va boqimandalik kayfiyati paydo bo'layotgan, odob-axloq, qadriyatlarning yo'qolish xavfi yuzaga kelayotgan hozirgi globallashuv sharoitida bu g'oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli, mening fikrimcha, inson ma'naviy olami, xalqlar madaniyatini belgilaydigan manbalarni asrab-avaylash va boyitish bugungi kunda har qachongidan ham muhimdir”², - deb ta'kidlaydilar. Albatta bugungi kun globallashuv jarayonlari o'zining nimaga qodirligini ko'rsatib kelmoqda. Bunday sharoitda har bir xalq o'zining milliy qadriyatlari milliy an'analarini saqlab qolishga harakat qilishi lozim. Bu jarayon albatta, yoshlar orqali amalga oshirilsa yanada mustaxkamlanadi va keying avlodga yetib boradi deb o'ylayman.

Demak xalq o'zini xalq sifatida, yurt sifatida anglamasa, u o'zining sha'ni, qadr-qimmatini, or nomusi haqida qayg'urib, milliy g'urur va iftixor tuyg'usini to'la his eta olmaydi.

Boshqacha so'z bilan aytganda, biz o'z xaq-huquqlarini taniydigan, o'z bilimi va tajribalariga tayanadigan, o'zining yonida sodir bo'layotgan jarayonlarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan, bugungi zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan erkin, har jihatdan etuk yoshlarni voyaga etkazishimiz kerak. Misol uchun Rossiyalik olim A.Zinovev «Aksilglobalizm vektorlari» nomli anjumanda shunday degan edi: «Globallashuv yangi jahon urushidir. U yangi tipdagi jahon urushi. Bu urushda tirik qolishning qarshilik ko'rsatishdan boshqa yo'lini ko'rmayapman. Faqat qarshilik!»³.

Mening fikrimcha, yoshlarni ma'naviy-axloqiy mansubligi quyidagi axloqiy me'yorlarga asoslanishi lozim deb o'ylayman:

1. **Yoshlarning shaxsiy irodasini shakllantirish.** Iroda insonning vijdonini tarbiyalovchi hayot yo'llarining har qanday jarayonlarida ijtimoiy madat kuchi sifatida yordam beruvchi ichki kuch hisoblanadi. “Insonda iroda birdaniga paydo bo'lmaydi, balki u muayyan vaqt davomida shakllantiriladi. Faylasuf olim

² Mirziyoev.Sh.M. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. T. 15. -T.: O'zbekiston. 2017. –326 b

³ Toshbekova M. Globallashuv jarayonida mafkuraviy taxdidlarni bartaraf etish omillari mavzusidagi maqolasidan *Oriental Renaissance: innovative, educational, natural and social sciences* 2021 yil mart 183-bet

I.Saifnazarov o'z tadqiqotlarida ma'naviy barkamollikka erishish mumamosini tadqiq etar ekan, "Komillik uning ko'nglidagi, irodasidagi tabiiy intilishga asoslanishi kerak"⁴ deydi, demak, irodali inson ongli ravishda jamiyatda o'z mavqeyini topadi va mustaqil erkin fikr bilan harakat qiladi irodasiz inson esa, boshqa insonlar dunyoqarashiga qaram sifatida qaraladi.

2. **Yoshlarni haqiqatgo'y qilib tarbiyalash.** Haqiqatgo'ylik insonning eng asosiy hislati hisoblanadi. Haqiqatga intilib yashash birinchidan insonning vijdonini poklaydi ikkinchidan hayot yo'lida to'g'ri yashashga chorlab turuvchi eng muxim vosita bo'lib xizmat qiladi.

3. **Yoshlarni insonparvar qilib tarbiyalash.** Insonparvarlik bu odomzotga hos eng asosiy insoniy hislatlar va tamoyillardan biri hisoblanadi. Shuningdek, yoshlarni insonparvar qilib tarbiyalash jamiyatning ijtimoiy ma'naviy muxitini ijobiy tarfga o'zgartiradi. Insonlar o'rtasida o'zaro hurmat mexr-oqibat munosabatlari yaxshi tarfga kuchayadi.

4. **Yoshlarni tolerantli qilib tarbiyalash.** Tolerantlik bu insonlarning barcha odamlarga nisbatan bag'rikengligi o'zaro hurmatni saqlash va cheksiz muxabbati hisoblanadi. Shuning uchun yoshlarni tolerantlik ruhida tarbiyalash bugungi kundagi dolzarb vazifalardan biridir.

5. **Yoshlarni vatanparvar qilib tarbiyalash.** Bu dunyoda har bir insonning yashash makoni ona vatani hisoblanadi. Hech bir inson o'z vatanidan ayro holda tassavur qilinmaydi. Shuning uchun yoshlarni o'z ona xalqiga sadoqat ruhida tarbiyalsh muxim masaladir.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, yoshlarda axloqiy identiklikni rivojlantirish yo'llari hamda O'zbekiston yoshlar ishlari agentligi bilan hamkorlikda milliy mansublik bo'yicha tadbirlar tashkil qilish imkonini beradi. Dunyoda yuz berayotgan g'oyaviy kurash jarayonida yoshlar ongida milliy g'urur milliy mansublik jixatlarini men kimman? Qaysi xalq farzandlariman Mening axloqan mansubligim qaysi kriteriyalar bilan o'lchanadi? kabi jixatlar rivojlanishida xizmat qiladi. Shuningdek, yoshlar bilan ishlash tashkilotlari

⁴ Saifnazarov I. Ma'naviy barkamollik va siyosiy madaniyat. – Toshkent: Sharq, 2001. – B.26.

yoshlarni vatanparvar milliy qadriyatlarimizga hurmat ruxida tarbiyalash asoslarini mustahkamlash jihatlarini chuqur tadqiq etishga e'tiborni qaratish yaxshi natija beradi.

Bugungi erkin va mustaqil hayotning mazmunini va zarurligini yoshlarning ongi va qalbiga singdirishda avvalombor ota-onalar, ustoz-murabbiylar mas'ulligini chuqur his qilishi lozim. Zero, bugun yoshlarimiz qanday qadriyat va madaniyatlar tarafga harakat qillmoqda, qanday maqsadlar bilan yashamoqda, biz bunga be'etibor munosabatda bo'lmashimiz lozim. Bu holat insonlarni o'yga toldiradi. Yoshlar axloqiy mansubligi bo'yicha hali ko'plab tadqiqotlar va qilinadigan ishlar borligini bildiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoev.Sh.M. .Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. T. 15. -T.: O'zbekiston. 2017. –326 b
- 2.Safoeva. S. Globallashuv jarayonining ijtimoiy hayot sohalariga ta'siri. // Globallashuv jarayonida jamiyatni demokratlashtirishning siyosiy, falsafiy-huquqiy masalalari. –Toshkent: Falsafa va huquq nashriyoti, 2006, 27-bet.
3. Toshbekova M. Globallashuv jarayonida mafkuraviy taxdidlarni bartaraf etish omillari mavzusidagi maqolasidan Oriental Renaissance: innovative, educational, natural and social sciences 2021 yil mart 183-bet
4. Saifnazarov I. Ma'naviy barkamollik va siyosiy madaniyat. – Toshkent: Sharq, 2001. – B.26.